

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

MAMAJANOVA O'KTAMXON XASANBAEVNA

**SO'X DARYOSI YOYILMASI SUG'ORILADIGAN
TUPROQLARINING GENETIK-MELIORATIV XUSUSIYATLARI VA
UNUMDORLIGI**

03.00.13 – «Tuproqshunoslik»

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UO‘T: 631.481; 452

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD) of
biological science**

Mamajanova O‘ktamxon Xasanbaevna

So‘x daryosi yoyilmasi sug‘oriladigan tuproqlarining genetik-meliorativ xususiyatlari va unumdorligi 3

Мамажанова Уктамхон Хасанбаевна

Генетико-мелиоративные свойства и плодородия орошаемых почв Сохского конуса-выноса 21

Mamajanova Uktamxon Xasanbaevna

Condition of irrigated soils of the Soh cone-removal, genetic-meliorative properties and their fertility 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

MAMAJANOVA O‘KTAMXON XASANBAEVNA

**SO‘X DARYOSI YOYILMASI SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARINING
GENETIK-MELIORATIV XUSUSIYATLARI VA UNUMDORLIGI**

03.00.13 – «Tuproqshunoslik»

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.4.PhD/B182 raqam bilan ro'yxatga olingan

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.soil.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismonov Abdurahob Jo'raevich
biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponetlar:

Qodirova Dilrabo Abdulkarimovna
biologiya fanlari doktori, dotsent Toshkent davlat agrar universiteti

Yuldashev G'ulom
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor Farg'ona davlat universiteti

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01-raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «27» 12 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 246-09-50; faks: (99871) 246-76-00; e-mail: info@soil.uz).

Dissertatsiya bilan Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (73 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 246-09-50; faks: (99871) 246-76-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «11» 12 kuni tarqatildi.

(2023 yil «11» 12 dagi 5- raqamli reestr bayonnomasi)



Sh.M.Bobomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., katta ilmiy xodim

J.M.Ko'ziev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim

N.Yu.Abduraxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda «dunyoda tuproqlarining uchdan bir qismi eroziya, shoʻrlanish, ifloslanishi hamda boshqa salbiy jarayonlarni taʼsirida degradatsiyaga uchramoqda»¹. FAO maʼlumotlariga koʻra, «2050 yilga borib eroziya natijasida jahon boʻyicha yetishtiriladigan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari 10 foizga kamayishi va 75 mlrd. tonna tuproqni yoʻqotilishi mumkinligi keltirilgan»². Shuning uchun ham avtomorf va gidromorf tuproqlarning genetik-meliorativ xossa-xususiyatlarini yaxshilash, muhofaza qilish, unumdorligini saqlash va oshirish dolzarb vazifalardan biri boʻlib qoladi.

Dunyoda sugʻoriladigan tuproqlarni tabiiy va antropogen omillar taʼsirida degradatsiyaga uchrashi, yaʼni mahsuldorligi, morfogenetik tuzilishi va tuproq unumdorligiga salbiy taʼsir etuvchi omillarni aniqlash orqali tuproq unumdorligini saqlash va oshirish masalasi ustuvor yoʻnalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, qishloq xoʻjaligiga yaroqli yerlarni aniqlash, genetik-meliorativ xususiyatlarini yaxshilash, degradatsiya jarayonlarini oldini olish, tuproqlarni unumdorligini saqlash, oshirish va ulardan samarali foydalanishga doir ilmiy-tadqiqotlarga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Respublikamizda togʻ oldi daryo yoyimalari sugʻoriladigan tuproqlari unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirish hamda ekologik-meliorativ holatini yaxshilash va muhofaza qilish borasida keng miqyosli ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasining «2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da «Qishloq xoʻjaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xoʻjaligining yillik oʻsishini kamida 5 foizga yetkazish»³ boʻyicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuning uchun ham, Soʻx yoyilmasida shakllangan sugʻoriladigan avtomorf va gidromorf tuproqlarning xossa-xususiyatlarini aniqlash, oʻzgarishlarini tahlil etish orqali tuproq unumdorligini barqarorlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son «Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi Farmoni, 2022 yil 10-iyundagi PQ-277-son «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xoʻjaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit

¹ <https://www.google.com/search?q=%D0%94%>.

² <https://www.fao.org/newsroom/detail/agriculture-soils-degradation-FAO-GFFA-2022/ar>

³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni

muhofazasi» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Sugʻoriladigan tuproqlarning genetikaviy, agrokimyoviy, agromeliorativ xossa-xususiyatlari, evolyutsiyasi, transformatsiyasi, degradatsiya jarayonlarini oʻrganish boʻyicha, ilmiy tadqiqotlarni xorijlik olimlardan A. Kowalska, A. Grobelak, D. Baragano, R.Forjan, K.Sierra, J.Luis, R.Gallego, F.J.Larney, D.A.Angers, V.A.Kovda A.N. Rozanov, N.G.Minashina, F.R.Zaydelman hamda respublikamiz olimlaridan M.A.Pankov, A.Maqsudov, R.Qoʻziyev, M.M.Toshqoʻziev, V.Yu.Isoqov, G.Yuldashev, L.A.Gʻofurova, Sh.M.Bobomurodov, N.Yu.Abduraxmonov, M.T.Isagʻaliev, A.U.Axmedov, A.J.Ismonov, N.N.Qalandarov, G.T.Sotiboldieva, X.N.Abduxakimova, Z.J.Isomiddinov va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan. Lekin, Soʻx yoyilmasi sugʻoriladigan tuproqlarida kechayotgan jarayonlarga antropogen omillar taʼsirini aniqlash, ayniqsa hududning yuqori, oʻrta va quyi qismlaridagi yerlarning genetik-meliorativ xususiyatlariga oid ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejaları bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining K-7-012 «Fargʻona vodiysi sugʻoriladigan tuproqlarini majmuaviy tadqiq etish maqsadida ularni tabiiy va antropogen omillar taʼsirida genetik-meliorativ evolyusiyasini aniqlash, keyingi oʻzgarishlarni bashorat etish va tuproq unumdorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish» (2009-2011 yy.), K-A-7-003 «Respublika sugʻoriladigan zonasi tuproq qoplamini kompleks oʻrganish, ularni baholash hamda degradatsiyaga uchragan tuproqlar ekologik-meliorativ holatini yaxshilash va mahsuldorligini oshirishning samarador texnologiyalarini ishlab chiqish» (2012-2014 yy.) mavzusidagi amaliy loyihalar hamda «Fargʻona viloyatining qishloq xoʻjaligiga yaroqli yerlarini tuproq monitoringi maqsadlarida tadqiq etish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish» mavzusidagi (2010 va 2019 yy.) shartnomalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Soʻx yoyilmasi sugʻoriladigan avtomorf va gidromorf tuproqlarining genetik-meliorativ xususiyatlarini antropogen omil taʼsirida tuproq unumdorligi oʻzgarishini eʼtiborga olgan holda ulardan samarali foydalanishga doir yechim ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Soʻx daryosi yoyilmasi yuqori, oʻrta va quyi oqimlarida shakllangan sugʻoriladigan tuproq qoplamining morfogenetik xossa-xususiyatlarini aniqlash;

yoyilma sugʻoriladigan tuproqlarining fizik-kimyoviy, agrokimyoviy xossalari va meliorativ holatini oʻrganish;

sugʻoriladigan tuproqlarni genetik qatlamlarini shoʻrlanish darajasi va umumiy tuzlar zahirasini aniqlash;

antropogen omil taʼsirida shakllangan sugʻoriladigan kolmatajlangan tuproqlarning xususiyatlari va oʻzgarishlarni aniqlash;

Soʻx daryosi yoyilmasi (M1:50000) «Sohibkor» va A.Bozorboshi nomli massivlar tuproqlari uchun GAT texnologiyalari asosida tuproq va shoʻrlanganlik

darajasini aks ettiruvchi xaritalarni (M1:10000) tuzish;

So‘x daryosi yoyilmasi tuproqlari xossa-xususiyatlarining sug‘orishlar ta’sirida o‘zgarishini aniqlash orqali meliorativ holatini yaxshilash, ulardan samarali foydalanish hamda unumdorligini saqlash va oshirishga doir yechimlar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida Farg‘ona viloyatining janubiy-g‘arbiy qismida joylashgan So‘x daryosi yoyilmasida shakllangan sug‘oriladigan kolmatajlangan, o‘tloqi saz va o‘tloqi allyuvial tuproqlar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti tuproqlarni morfogenetik belgilari, mexanik tarkibi, sho‘rlanganlik darajasi, agrokimyoviy xossalari, tuproq unumdorligi, tuproq va tuproq-sho‘rlanganlik xaritalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar dala, laboratoriya va kameral sharoitlarda tuproqshunoslikda umumqabul qilingan standart uslublar bo‘yicha amalga oshirildi: Tuproq namunalarini olish va laboratoriya tahlil ishlari Y.V.Arinishkinaning «Руководство по химическому анализу почв» hamda TATIning «Руководство к проведению химических и агрофизических анализов почв при мониторинге земель» qo‘llanmalari bo‘yicha, tuproq xaritalash ishlari «Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq kartalarini tuzish bo‘yicha yo‘riqnomasi» asosida, olingan ma’lumotlarning matematik-statistik tahlillari B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» uslubiy qo‘llanmasi va «Microsoft Exsel» dasturi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

So‘x daryosi yoyilmasida shakllangan kolmatajlangan, o‘tloqi saz hamda o‘tloqi allyuvial tuproqlarda hozirda kechayotgan o‘ziga xos morfogenetik o‘zgarishlari (agroiirrigatsion qatlamni shakllanishi, mexanik tarkiblari bo‘yicha o‘rta qumog‘lar miqdorlarini quyiga tomon ortib borishi) aniqlangan;

eskidan sug‘oriladigan yoyilma tuproqlarida avtomorfdan gidromorflar tomon mexanik tarkibida yirik chang zarrachalari miqdori (0,05-0,01mm) (yoyilma yuqori qismidan quyiga gidromorf tuproqlar tomon o‘rtacha 21,2% -36,0%) oshib borayotganligi aniqlangan;

hudud sug‘oriladigan avtomorf tuproqlaridan gidromorf tuproqlar tomon yalpi azot (0,056% - 0,095%) va almashinuvchi kaliy miqdori (118 - 374 mg/kg gacha) ortib borishi asoslangan;

sug‘oriladigan tuproqlarda sulfat ionining ortishi, yer osti sizot suvlariga ham ta’sir etib, sulfatli minerallashishiga olib kelgan va yoyilmada shakllangan kolmatajlangan sug‘oriladigan tuproqlarda umumiy tuzlar zaxirasi vertikal zonallik qonuniyatiga bo‘ysinishi aniqlangan;

So‘x daryosi yoyilmasida shakllangan sug‘oriladigan tuproqlarning 1 metrli qatlamida umumiy tuzlarning zaxirasi yuqori zonadan quyi tekislik tomon (kolmatajda o‘rtacha 17,08-17,92 t/ga, o‘tloqi sazda 39,34-190,8 t/ga, o‘tloqi allyuvial 54,2-167,1 t/ga) ortib borishi ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sug‘orishlar va ishlov berishlar ta’sirida morfogenetik o‘zgarishga uchragan,

So‘x yoyilma sug‘oriladigan tuproqlaridan samarali foydalanish maqsadida uning 1:50000 masshtabli elektron raqamli tuproq va sho‘rlanish xaritalari ishlab chiqilgan;

So‘x yoyilmasida joylashgan tayanch massivlari sug‘oriladigan avtomorf va gidromorf tuproqlarining 1:10000 masshtabli tuproq (A.Bozorboshi nomli massiv) va sho‘rlanish xaritogrammasi (Sohibkor massivi) tuzilgan;

sug‘oriladigan avtomorf va gidromorf tuproqlardan samarali foydalanish, meliorativ holatini yaxshilash, unumdorligini saqlash, tiklash va oshirishga doir yechimlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlarda dala, laboratoriya, kameral va sohada umumqabul qilingan usullardan foydalanilganligi, olingan natijalar matematik-statistik tahlil qilinganligi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, olingan natija va xulosalar asoslanganligi, natijalarning respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi hamda natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarini ilmiy ahamiyati So‘x daryosi yoyilmasida shakllangan kolmatajlangan, o‘tloqi saz hamda o‘tloqi allyuvial tuproqlarda hozirda kechayotgan o‘ziga xos morfogenetik o‘zgarishlari aniqlanganligi, yoyilmada tarqalgan eskidan sug‘oriladigan avtomorf tuproqlarning mexanik tarkibida yirik chang zarrachalarini miqdori gidromorf tuproqlar tomon oshib borayotganligini, avtomorf tuproqlaridan gidromorf tuproqlar tomon umumiy azot (0,056% dan 0,095% gacha) va almashinuvchi kaliy (118 mg/kg dan 374 mg/kg gacha) miqdorlari ortib borishi asoslanganligi, sug‘oriladigan tuproqlarda sulfat ionining ortishi, yer osti sizot suvlariga ham ta’sir etib, sulfatli minerallashishiga olib kelayotganligi va yoyilmada shakllangan kolmatajlangan sug‘oriladigan tuproqlarda umumiy tuzlar zaxirasi vertikal zonallik qonuniyatiga bo‘ysinishi, So‘x daryosi yoyilmasida shakllangan sug‘oriladigan tuproqlarning 1 metrli qatlamida umumiy tuzlarning zaxirasi yuqori zonadan quyi tekislik tomon ortib borishi ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, So‘x yoyilmasi uchun tuzilgan 1:50000 mashtabli tuproq xaritasi hamda tayanch massivlari uchun tuzilgan 1:10000 mashtabli tuproq va sho‘rlanish xaritalari asosida yoyilmada tarqalgan sug‘oriladigan tuproqlarning meliorativ va agrokimyoviy xossalriga bog‘liq holda tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, yer resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq xo‘jaligi ekinlaridan sifatli va yuqori hosil olish, tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash, sho‘r yuvish va meliorativ tadbirlarni maqbul me‘yor va muddatlarini ishlab chiqishga asos bo‘lishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. So‘x yoyilmasida shakllangan tuproqlarni genetik-meliorativ xususiyatlari va unumdorligi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

So‘x daryosi yoyilmasining 1:50000 masshtabli tuproq xaritasi Farg‘ona viloyatini janubiy-g‘arbiy qismida joylashgan So‘x yoyilmaning 88884,7 gektar

maydonida amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 22 noyabrdagi №-04/30-04/8673-son ma'lumotnomasi). Natijada, yer resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlarini, meliorativ tadbirlarni maqbul me'yor, muddat va sonlarini belgilash hamda tuproqlar unumdorligini saqlash, qayta tiklash va qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish imkonini bergan;

A.Bozorboshi nomli massivni 1312 gektar sug'oriladigan yerlarining 1:10000 masshtabli tuproq kartasi O'zbekiston tumani qishloq xo'jaligi bo'limida amaliyotda foydalanish uchun joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 22 noyabrdagi №-04/30-04/8673-son ma'lumotnomasi). Natijada, kolmatajlangan tuproqlarni meliorativ holatini yaxshilash, ekinlarni joylashtirish, shudgor qilish va qishloq xo'jaligi ekinlariga vegetatsiya davrida ishlov berish tadbirlarini belgilash imkonini bergan;

«Sohibkor» massivini 2778 gektar sug'oriladigan yerlarining 1:10000 masshtabli sho'rlanish xaritogrammasi O'zbekiston tumani qishloq xo'jaligi bo'limida amaliyotda foydalanish uchun joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 22 noyabrdagi № 04/30-04/8673-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'tloqi allyuvial tuproqlarning unumdorligini saqlash, oshirish va meliorativ holatini yaxshilash imkoniyati yaratilgan hamda sho'r yuvishning maqbul me'yor, muddat va sonlarini belgilash imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 8 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy va amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilish va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 109 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotni ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarining nazariy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «So'x yoyilmasi tuproq qoplamlari» deb nomlangan birinchi bobida yoyilma sug'oriladigan tuproqlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini tahliliy natijalari keltirilgan. Shuningdek, tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, So'x yoyilmasi sug'oriladigan tuproqlarining morfogenetik xususiyatlari, tuproq xossalriga ta'sir etuvchi omillarni ochib berishga doir xorijiy va respublika

olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarning tahliliga bag'ishlangan adabiyotlar sharhi keltirilgan. Adabiyotlar tahlilining yakunida yoyilma tuproqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yanada to'ldirish, ulardan samarali foydalanish istiqbollari ochib berish va genetik-meliorativ xususiyatlarini o'rganish, keyingi tadqiqotlarda kengroq olib borishini taqazo etishi to'g'risida xulosalar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot hududining tabiiy sharoitlari, tadqiqotlar ob'ekti va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida o'rganilgan hududlarni geografik o'rni, iqlimi, o'simliklar dunyosi, tadqiqot o'tkazilgan hududning gidrogeologik sharoitlari, geologik, litologik va geomorfologik tuzilishi, tuproq paydo qiluvchi jinslar va tadqiqotlar ob'ekti, uslublari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

So'x daryosi Farg'ona botig'iga chiqqandan so'ng, katta yelpig'ichsimon klassik yoyilmani hosil qiladi. Bu yoyilmani turli keltirilma jinslar band qilgan. Ular orasida prolyuvial, ya'ni suv yordamida keltirilgan jinslarni yotqizilishi natijasida tuproq paydo qiluvchi asosiy geologik jinslardan biri prolyuvial yotqiziqalar shakllangan. Keyingi o'rinlarda allyuvial va lyossimon yotqiziqalar turadi. Umuman O'rta Osiyo tog' oldi hududlarini daryo va soylarini nisbatan yosh ekanligini hisobga olganda asosiy yotqiziqalarni vujudga kelishi to'rtlamchi davrning tektonik harakatlari bilan bevosita bog'liq.

Tadqiqot ob'ekti sifatida Farg'ona vodiysining janubiy-g'arbiy qismida joylashgan So'x daryosi yoyilmasining sug'oriladigan tuproqlari tanlangan. So'x yoyilmasi hududlariga O'zbekiston, Furqat, Dang'ara, Buvayda, Uchko'prik va Bog'dod tumanlarining sug'oriladigan avtomorf va gidromorf tuproqlari kiradi. So'x daryosi yoyilmasining umumiy yer maydoni 88884,7 ming gektar bo'lib, uning o'tloqi saz 45,4%, o'tloqi (allyuvial) 24,5%, kolmatajlangan 11,1%, och tusli bo'z 3,6%, bo'z-o'tloqi 0,2%, sur qo'ng'ir-o'tloqi 0,2%, o'tloqi-taqir 1,2%, cho'l-o'tloqi 1,1%, o'tloqi-botqoq 0,3%, sur tusli qo'ng'ir 1,7% va 10,7 foizni boshqa (yaralmalar) tuproqlar tashkil etadi. Tadqiqotlar dala, laboratoriya va kameral sharoitlarda tuproqshunoslikda umumqabul qilingan standart uslublar bo'yicha amalga oshirilgan. Tuproq namunalarini olish va laboratoriya tahlil ishlari Y.V.Arinushkinaning «Руководство по химическому анализу почв» hamda ТАИТИ ning «Руководство к проведению химических и агрофизических анализов почв при мониторинге земель» qo'llanmalarida ko'rsatilgan uslublar asosida, olingan ma'lumotlarning matematik-statistik tahlillari B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» uslubiy qo'llanmasi va «Microsoft Excel» dasturi asosida bajarilgan.

Dissertatsiyaning «**So'x yoyilmasi asosiy tuproqlarining tavsifi**» deb nomlangan uchinchi bobi sug'oriladigan tuproqlarni hozirgi holati va ularni morfogenetik tuzilishi, So'x yoyilmasi sug'oriladigan tuproqlarning mexanik tarkibi, avtomorf va gidromorf tuproqlar morfologiyasi, agrokimyoviy xossalari va sug'oriladigan tuproqlarining unumdorligiga tabiiy va antropogen omillar ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Shu bobning «*Sug'oriladigan tuproqlar va ularning morfogenetik tuzilishi*» bo'limida yoyilma bo'yicha yangidan va eskidan sug'oriladigan kolmatajlangan, o'tloqi saz, o'tloqi allyuvial tuproqlarni morfologik belgilari hamda morfogenetik

xususiyatlariga doir izlanishlar natijalari keltirilgan.

So'x yoyilmasi sug'oriladigan tuproqlarning mexanik tarkibi. Yangidan va eskidan sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlar, allyuvial-prolyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan, o'rta va quyi zonalarida hamda yoyilmaga yondosh qadimgi allyuvial (cho'l zona) tekisliklariga qo'shilgan allyuvial-prolyuvial yotqiziqalar geomorfologik rayonlarida tarqalgan.

Tadqiqot ob'ekti sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarini mexanik tarkibi tahlil etilganda, eskidan sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarning haydov qatlami mexanik tarkibiga ko'ra asosan o'rta qumoqli bo'lib, fizik loy (<0,01 mm) zarrachalarining miqdori 30,2% dan 40,9% gachani tashkil etadi. Yirik chang (0,05-0,01mm) va mayda qum (0,1-0,05) zarrachalarini yaqqol ustunlik qiladi, tuproq qatlamlarida 34,0% dan 36,0% va 19,9% dan 28,9% gachani tashkil etadi. O'rta chang (0,01-0,005mm) zarrachalari 8,5% dan 22,1% gachani, quyi qatlamlarda 9,1% dan 11,8% gachani, mayda chang (0,005-0,001 mm) zarrachalari esa 3,3% dan 26,2% gacha kuzatildi. Il zarrachalari yuqori qatlamlarda 3,5% dan 13,8% gachani, quyi qatlamlarda esa 2,3% dan 10,4% gachani tashkil etadi. Bundan tashqari, mexanik zarrachalar tarkibida oqar suvlar bilan keltirilgan va o'simliklar hamda boshqa qoldiqlar ta'sirida shakllangan mayda qum va yirik chang zarrachalarini yuqori miqdorda tuproq tarkibida to'planganligi aniqlandi.

Sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar Sirdaryoning I-II qayir usti terrasalarida, Sirdaryoni qadimgi allyuvial tekisliklari va So'x yoyilmasining chekka qismlariga tutashgan qadimgi allyuvial tekisliklarni geomorfologik rayonlarida keng tarqalgan. Bu tuproqlarni mexanik tarkibi tuproq profili bo'yicha serqatlamligi bilan ajralib turadi. Eskidan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar mexanik tarkibiga ko'ra, asosan, o'rta qumoqli bo'lib, haydov qatlamida fizik loy (<0,01 mm) zarrachalarining miqdori 38,4 % ni tashkil etadi. Yirik chang (0,05-0,01mm) va mayda qum (0,1-0,05) zarrachalarini ustunlik qilib, tuproq qatlamlarida 27,9% va 20,1% ni tashkil etadi. O'rta chang (0,01-0,005mm) zarrachalari 13,6% ni, quyi qatlamlarda 6,8% ni, mayda chang (0,005-0,001mm) zarrachalari esa 19,7% kuzatiladi. Il zarrachalari ustki qatlamlarda 5,1% ni, quyi qatlamlarda esa 3,5% ni tashkil etadi. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinadiki, o'rganilgan eskidan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlarni haydov qatlamida jami qum zarrachalariga nisbatan chang zarrachalari miqdori ko'p miqdorda qayd etildi. Bu shuni ko'rsatadiki, sug'orish natijasida loyqalarni kirib kelishi tuproqlarni yuqori qatlamlarida nisbatan (qumga) ko'proq to'planganligidan dalolat qiladi.

Yangidan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlarning haydalma qatlamlarida mayda qum zarrachalari 13,2% dan 41,1% oraliqda. Yirik chang zarrachalari esa 27,7-31,3% gacha oralig'ida bo'lib, il (>0,001mm) zarrachalari miqdori yuqori qatlamlardan yuvilib quyi qatlamlarda to'planganligi qayd etildi. Yangidan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlarda qum va chang zarrachalarini yuqori miqdorda to'planishiga sabab – sug'orish ishlarini olib borilishi natijasida, ya'ni tuproq kapilyar tomirlar orqali hamda sug'orish suvlari ta'sirida namlanib, namlanish (suv sathini ko'tarilishi) kuchaygan va bu anaerob sharoitni rivojlantirgan, botqoqlanish jarayonlari kelib chiqqan. Hududning o'tloqi allyuvial

tuproqlarida anaerob va aerob jarayonlar almashib rivojlangan. Natijada tuproq qatlami qalinlashib borgan. Bu holatga hudud avvalgi, ya'ni o'tloqi allyuvial va botqoq tuproqlarini keng rivojlanganligi, tuproqqa qo'shimcha qoldiqlarni tushishini hamda ularni minerallashuv jaryonlarini jadallashishiga yordam bergan.

Sug'oriladigan kolmatajlangan tuproqlar - tosh-shag'alli yotqiziqlar yuzasiga insonlar tomonidan loyqalarni oqizilishi, yotqizilishi orqali sun'iy yaratilgan tuproqlardir.

Eskidan sug'oriladigan kolmatajlangan tuproqlar So'x daryosi yoyilmasining yuqori qismida allyuvial-prolyuvial yotqiziqlar ustida antropogen omillar ta'sirida paydo bo'lgan. Bunday kolmatajlangan tuproqlar, asosan, o'rta va yengil qumoqli mexanik tarkibga ega bo'lsa-da, yengil qumoqli mexanik tarkibga ega bo'lgan tuproqlar ancha maydonni egallaydi. Eskidan sug'oriladigan kolmatajlangan tuproqlar Oqsuv, A.Bozorboshi va S.Azizov nomli massivlarining qadimdan dehqonchilik ishlari yo'lga qo'yilgan yer maydonlarida shakllangan.

So'x yoyilmasini yuqori qismida tarqalgan eskidan sug'oriladigan kolmatajlangan tuproqlarning haydov qatlamida mexanik zarrachalari orasida (0,1-0,05 mm) mayda qum zarrachalari o'rtacha 15,2% dan 34,1% gacha, yirik chang (0,05-0,01 mm) zarrachalari 21,2% dan 33,2 % gachani va fizik loy miqdori 27,2-31,6% gachani tashkil etganligi qayd etildi. Yoyilmaning umumiy tuproqlari mexanik tarkibi tahlil etilganda shu narsa namoyon bo'ldiki, mayda qum zarrachalariga nisbatan yirik chang zarrachalarini tuproq tarkibida ko'proq to'planganligi qayd etildi. Buning sababi tuproqqa sug'orishlar natijasida chang zarrachalarini o'rmashib qolishi, qum zarrachalariga nisbatan kuchli bo'lgan hamda doimiy loyqa suvlar bilan mayda zarrachalarni uzluksiz qo'shib turishi hisobiga ham ular miqdorini bir muncha ko'payganligi aniqlandi. Eskidan sug'oriladigan kolmatajlangan tuproqlarda dala yuzasi tekislangan, agroirrigatsion qatlamlar shakllangan hududlar mavjud.

Yangidan sug'oriladigan kolmatajlangan tuproqlar So'x daryosi yoyilmasining o'rta va yuqori qismlarida o'zlashtirilganiga 20-30 yil bo'lgan hududlarida tarqalgan. Bu tuproqlarda haydov osti qatlamlari endi shakllanmoqda, haydov qatlamida toshlar aralashgan. Mexanik tarkibiga ko'ra, yengil qumoqli tuproqlar bo'lib, yoyilmaning yuqori qismidagi ushbu tuproqlarni mexanik tarkibi haydov qatlamda yirik qum zarrachalari o'rtacha 15,0% gachani, mayda qum zarrachalari 37,6% gacha, yirik chang zarrachalari 23,9% va fizik loy 22,0% ni tashkil etadi.


Shu bobning «*O'rganilgan hudud tuproqlarining agrokimyoviy xossalari*» bo'limida yoyilmaning yuqori, o'rta va quyi qismlarida tarqalgan sug'oriladigan o'tloqi saz, o'tloqi allyuvial hamda kolmatajlangan tuproqlarning agrokimyoviy xossalari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarning agrokimyoviy xossalari. Yoyilmaning o'rta oqimlarida tarqalgan eskidan sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarini haydov qatlamida gumus miqdori o'rtacha 1,17% dan 1,63% gachani, umumiy azot 0,085% dan 0,097% gacha, umumiy fosfor 0,230% dan 0,423% gacha va kaliy 1,63% dan 3,00% gachani tashkil etgan. Harakatchan fosfor o'rtacha 4,00-10,80 mg/kg, almashinuvchi kaliy 139 mg/kg dan 170 mg/kg

gachani tashkil etgani holda, gumus bilan o'rtacha va yetarli, fosfor va kaliy bilan juda kam va kam darajada ta'minlanganligi qayd etildi. Eskidan sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlar gumus bilan nisbatan o'rtacha (Paxtakor va S.Azizov nomli massivlarda) darajada ta'minlangan(1,17-1,63%)(1-rasm).

So'x yoyilmasining o'rta oqimlarida shakllangan yangidan sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarni haydov qatlamida gumus miqdori 1,07%, harakatchan fosfor 20,26 mg/kg va almashinuvchi kaliy 190 mg/kg ni tashkil etgan. Bu tuproqlar gumus bilan o'rtacha, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy bilan kam ta'minlangan.

Sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlarning haydov qatlamida gumus miqdori o'rtacha 0,92% dan 1,34% gacha tashkil etgani holda, umumiy azot o'rtacha 0,052-0,095%, fosfor 0,190-0,320% va kaliy 1,119-1,678% tashkil etadi. Harakatchan fosfor haydov qatlamida o'rtacha 9,47 mg/kg dan 33,0 mg/kg gachani, almashinuvchi kaliy 130 mg/kg dan 374 mg/kg gachani tashkil etgan. Ushbu tuproqlar harakatchan fosfor bilan juda kam, ba'zan o'rtacha darajada, almashinuvchi kaliy bilan kam, o'rtacha va yetarli darajada ta'minlanganligi qayd etildi.



1-rasm. Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarning haydov qatlami tarkibidagi gumus va azot miqdorlari (% hisobida)

Eskidan sug'oriladigan kolmatajlangan tuproqlarda gumus miqdori o'rtacha 0,88% dan 1,20%, azot 0,082% dan 0,098% gachani, fosfor 0,145% dan 0,320% gacha va kaliy 1,20% dan 1,60% gachani, harakatchan fosfor 4,60 mg/kg dan 22,0 mg/kg gachani, almashinuvchi kaliy 79 mg/kg dan 180 mg/kg gachani tashkil etadi. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, tuproqlar gumus bilan o'rtacha, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy bilan juda kam va kam darajada ta'minlangan tuproqlar toifasiga kiradi.


Eskidan sug'oriladigan kolmatajlangan tuproqlarda harakatchan azot, fosfor va kaliyning turlicha taqsimlanganligi va joylarda ular miqdorini kam uchrashi, asosiy ekin turidan so'ng ikkinchi ekinlarni ham ekilishi natijasida, tuproq tarkibidagi bu oziqa elementlarini kamayib ketishiga olib kelganligi qayd etildi. Ekinlarga kuzgi shudgor va o'simliklarni vegetatsiya davrida to'g'ri o'g'it qo'llanmasligi natijasida, tuproqlar tarkibida oziqa moddalari yetarli darajada emas. Bu tuproqlarni So'x daryosi suvlari bilan sug'orish katta ahamiyatga ega

chunki, uning suvlari oziqa moddalariga va turli keltirilmalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Yangidan sug'oriladigan kolmatajlangan tuproqlarni haydov qatlamida gumus miqdori o'rtacha 1,00-1,20%, umumiy fosfor 0,102-0,237%, yalpi kaliy 2,31-2,59%, harakatchan fosfor 5,33-8,14 mg/kg va almashinuvchi kaliy 96-129 mg/kg ni tashkil etadi.

Dissertatsiyaning «**Tuproqlarning sug'orishlar ta'sirida o'zgarishi**» deb nomlangan to'rtinchi bobida, sug'oriladigan tuproqlarning tavsifi, tuproqlarning meliorativ holati, sho'rlangan tuproqlarni shakllanishi, zahiralari va ularni regional xususiyatlari, hudud tuproqlarida sizot suvlari rejimi va ularni minerallasganligi, So'x yoyilmasi sug'oriladigan tuproqlarining genetik, tuproq-meliorativ holati ma'lumotlari keltirilgan (2-rasm).

Sug'oriladigan tuproqlarning meliorativ holati. Tadqiqotlar davomida o'rganilgan tuproq kesmalarining kimyoviy tahlil natijalariga ko'ra, aksariyat sug'oriladigan kolmatajlangan tuproqlarni haydov va ba'zan butun tuproq profili kuchsiz darajada sho'rlangan bo'lib, ularda quruq qoldiq miqdori o'rtacha 0,225 dan 0,455% gacha, sho'rlanish tipi sulfat goho xlorid-sulfat tipida. Sho'rlanishlarda quruq qoldiq tuproq profilida turli tebranishlarda bo'lib, ba'zan quyiga tomon ortib borishi qayd etildi. Tuproq profilida quruq qoldiq miqdorini bunday tebranishi, tuproqni mexanik tarkibi bilan bog'liq bo'lib, og'ir qumoqli tuproqlarni yuqori qatlamlari kuchsiz sho'rlangan, yengil qumoqli tuproqlarida esa quyiga tomon sho'rlanishlarni ortib borganligi va tuzlarni sifat tarkibi aniqlandi.



2-rasm. So'x daryosi yoyilmasining tuproq sho'rlanish xaritasi

Bundan tashqari, sho'rlanishlar joylarda shakllangan tuproqlarni ona jinsiga ham bog'liq ravishda sho'rlanganlik yoki sho'rlanmaganlik holatlari kuzatildi.

Tadqiqot hududi sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlari, asosan, kuchsiz va

oʻrtacha baʼzan kuchli darajada shoʻrlanganligi, tuproq-litologik profilini tashkil etuvchi tuproq qoplamlarining oʻziga xos tuzilishida hamda tuproqlar tarkibidagi suvda eruvchan tuzlarni kimyoviy tahlil natijalarida ifodalangan. Sugʻoriladigan oʻtloqi saz tuproqlar shoʻrlanmagan, kuchsiz va oʻrtacha, baʼzan kuchli shoʻrlangan guruhlarini tashkil etgani holda, 1804, 155, 17B va 2020 kesmalar joylashgan sugʻoriladigan oʻtloqi saz tuproqlarda quruq qoldiq miqdori 0,295% dan 1,305% gacha boʻlib, kuchsiz va kuchli darajada sulfat va xlorid-sulfat tiplarida shoʻrlangan. 17B va 2721-kesma tuproqlari nisbatan tekis va choʻl zonasiga tutashgan, sizot suvlari harakati sust, hududlarga yaqin joylashganligidan kuchli darajada, quruq qoldiq miqdori xlorid-sulfat 1,305% va sulfat tipida shoʻrlangan 3,100% tashkil etadi. Shoʻrlanishga uchramagan sugʻoriladigan oʻtloqi saz tuproqlarda quruq qoldiq miqdori 0,255-0,295% koʻrsatkichlar atrofida tebranadi. Oʻrganilgan massivlarni tuproq qoplamlarida shoʻrlanmagan tuproqlar ham uchradi, lekin ular yuvilgan tuproqlar yaʼni, kuz-qish oylarida sifatli shoʻr yuvish ishlari amalga oshirilgan.

Sugʻoriladigan oʻtloqi allyuvial tuproqlarni haydov qatlamida, kuchsiz shoʻrlangan kesmalarda quruq qoldiq miqdori oʻrtacha 0,520% dan 0,770% gacha, oʻrtacha shoʻrlanganda 1,220-1,136% atrofida tebranadi. Shunday holat kuzatildiki, turli darajada shoʻrlangan gidromorf tuproqlarda magniy ionlariga nisbatan kalsiy ionlari miqdori koʻp, lekin shoʻrlanmagan qatlamlarda esa uning aksi kuzatildi. Sugʻoriladigan kolmatajlangan tuproqlarning 1 metrlik qatlamidagi suvda oson eruvchan tuzlarni umumiy zahirasi 17,08-17,93 tonna gektarni, sugʻoriladigan oʻtloqi saz tuproqlarda 39,3-190,8 tonna gektarni, sugʻoriladigan oʻtloqi allyuvial tuproqlarda 54,2-167,1 tonna gektar oraligʻida tebranishi kuzatildi (1-jadval).

Tuproqlarning singdirish sigʻimi (singdirish kompleksi), ularning mexanik va mineralogik tarkibi, gumuslanganlik darajasi va bir qator suv-fizikaviy xossalari bilan belgilanib, sugʻoriladigan tuproqlarning ishlab chiqarish qobiliyati va mahsuldorligi koʻp jihatdan uning singdirish sigʻimi va singdirilgan asoslar (kationlar) tarkibiga bogʻliq.

